

Davlat Mullajonov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi dotsenti,
san'atshunoslik fanlari nomzodi
E-mail: mulladjanovdavlat@gmail.com
ORCID: 0009-0008-5106-8511*

NAVO VA MAQOMGA BAG'ISHLANGAN UMR

**(O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi,
"Mehnat shuhrati" ordeni sohibi, san'atshunoslik fanlari doktori, professor
Oqilxon Ibrohimov xotirasiga bag'ishlandi)**

***Annotatsiya.** Maqola taniqli maqomshunos olim, san'atshunoslik fanlari doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning porloq xotirasiga bag'ishlandi. Unda olimning o'zbek musiqashunosligi, xususan, Maqom semantikasi va Temuriylar davri musiqa madaniyatini tadqiq etishga qo'shgan hissasi tahlil qilindi. Ustozlari F.M.Karomatli va I.Rajabovlarning ilmiy an'analari vorislik kontekstida o'rganildi. Olimning YUNESCO doirasida Shashmaqomni asrash borasidagi xizmatlari va u asos solgan ilmiy maktab ahamiyati ochib berildi.*

***Kalit so'zlar:** shashmaqom, maqomshunoslik, maqom semantikasi, Temuriylar renessansi, YUNESCO, ilmiy vorislik, musiqa ta'limi, nazira, estrada, grant.*

ЖИЗНЬ, ПОСВЯЩЕННАЯ НАВО И МАКОМУ

**(Посвящается памяти «Заслуженного наставника молодежи
Республики Узбекистан», кавалера ордена «Трудовая слава», доктора
искусствоведения, профессора Окилхона Ибрагимова)**

***Аннотация.** Статья посвящена памяти известного ученого-макомоведа, доктора искусствоведения, профессора Окилхона Ибрагимова. В работе анализируется его вклад в узбекское музыкознание, в частности, в исследование семантики макомов и музыкальной культуры эпохи Тимуридов. Рассматриваются научные традиции его учителей Ф.М.Кароматова и И.Раджабова в контексте преемственности. Освещаются международные*

заслуги ученого в рамках ЮНЕСКО по сохранению Шашмакома и значение созданной им научной школы.

Ключевые слова: шашмаком, макомовед, семантика макомов, эпоха Тимуридов (Тимуридский ренессанс), ЮНЕСКО, научная преемственность, музыкальное образование, назира, эстрада, грант.

A LIFE DEDICATED TO NAVO AND MAQOM

(Dedicated to the memory of Oqilkhon Ibragimov – Honored Mentor of the Youth of the Republic of Uzbekistan, awarded the Order of «Labor Glory» doctor of art history, and professor)

Abstract. *The article is dedicated to the memory of the renowned Maqom scholar, Professor Oqilxon Ibrohimov. The paper analyzes his contribution to Uzbek musicology, particularly to the study of Maqom semantics and the musical culture of the Timurid era. The scientific traditions of his mentors F.M.Karomatli and I.Rajabov are examined within the context of continuity. The scholar's international achievements within UNESCO for the safeguarding of Shashmaqom and the significance of his scientific school are highlighted.*

Keywords: *shashmaqom, maqom scholar, semantics of maqams, Timurid era (Timurid Renaissance), UNESCO, scholarly continuity, music education, nazira, popular music, grant.*

O'zbek musiqa ilmi va maqomshunoslikning yirik namoyandasi, fidoyi olim va zabardast pedagog, san'atshunoslik fanlari doktori, professor Oqilxon Akbarovich Ibrohimov agar hayot bo'lganlarida, shu yilning 26-sentyabr kuni muborak 70 yoshni qarshilagan bo'lar edi. Ustoz bugun jisman oramizda yo'q bo'lsalar-da, u kishidan qolgan bebaho tadqiqotlar va yuzlab shogirdlar qalbidagi yorqin xotira ularning nomini barhayot saqlab kelmoqda.

Oqilxon Ibrohimov 1956-yil 26-sentyabrda Ohangaron shahrida dunyoga keldi. Musiqa va navoga bo'lgan ichki ishtiyoq olimni yoshligidanoq R.M.Glier nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan musiqa internatiga yetakladi. Bu dargohdagi



skripka sinfida, so'ngra musiqa nazariyasi sirlarini qunt bilan o'rgandi. O'sha kezlarda bo'lajak olim o'z taqdirini san'atshunoslik ilmi bilan uzviy bog'lashga qat'iy qaror qilib, Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining "Musika nazariyasi" kafedrasida dotsenti, san'atshunoslik fanlari nomzodi Zarifa G'ulomovna Karimova rahbarligi ostida ta'lim oldi. 1980-yilda u musiqashunoslik ixtisosligi bo'yicha musiqa nazariyasi fanlari o'qituvchisi va lektor

kvalifikatsiyasiga ega bo'ldi. Dastlab yo'llanma bilan Oqilxon aka Guluston shahridagi musiqa bilim yurtida ishladi. So'ngra Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasi "Sharq musiqasi" kafedrasining kabinet mudiri lavozimida faoliyat yuritdi. Aynan mana shu davr Oqilxon akaning hayotida keskin burilish hosil qildi. Yevropa musiqasi tarixi va nazariy asoslarida tarbiyalangan yosh mutaxassis o'zbek xalq musiqa madaniyatining yuksak cho'qqisi – maqom san'ati namunalari tinglovidan kuchli ta'sirlanib, uni o'rganish va ilmiy tadqiq etishdek mashaqqatli yo'lni tanlaydi.

Aytish joizki, Oqilxon Akbarovich oddiy musiqashunos emas, balki milliy kuylarimizning ichki ishoralar mazmunini chuqur anglagan olim edi. Uning jiddiy ilmiy izlanishlari San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti aspiranturasida shakllandi. Oqilxon akaning chinakam ilmiy kamoloti va olimlik baxti haqida so'z ketganda, u kishiga ustozlik qilgan ulug' siymolarni alohida minnatdorlik va ehtirom bilan tilga olmoq joizdir. Oqilxon Ibrohimovning ilmiy rahbari va ustozlari O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, san'atshunoslik fanlari doktori, professor Fayzulla

Muzaffarovich Karomatli (Karomatov) edilar. Fayzulla Karomatli nafaqat respublikamizda va Markaziy Osiyo mintaqasida, balki butun jahon musiqashunoslik ilmida o'z maktabi va mustahkam o'rniga ega bo'lgan jahonshumul olim edi. Oqilxon aka mana shunday buyuk ustozning qo'lida tahsil olib, u kishining qat'iy talabchanligi, manbashunoslik an'analari va keng qamrovli ilmiy "nigohi"ni o'z shogirdiga singdirdi. Shu sababli ham Oqilxon Akbarovichning har bir tadqiqoti, yozgan maqola va darsliklari Fayzulla Muzaffarovich asos solgan talablarga to'liq javob berardi.

Shu o'rinda Oqilxon Akbarovich ilm ummonidagi dastlabki qadamlari haqida gapirganda bir voqeani takror-takror eslar edi. Mening fikrimcha, bu shunchaki voqea emas, balki bugungi ilm ahli uchun chinakam ibrat bo'ladigan voqea edi. Aspirantning "Farg'ona-Toshkent maqomlari maqomot muammolari talqinida" ("Фергано-Ташкентские макоми в аспекте проблем макомата") mavzusidagi nomzodlik dissertatsiya ishini ilmiy muhokamaga taqdim etish, ustozlar fikr-mulohazalarini, takliflarini tinglash pallasida edi. Lekin ustoz Fayzulla Muzafarovich "hali ish muhokamaga tayyor emas" deb, shogirdini qaytarar edi. Bu jarayon uzoq davom etmadi. Nihoyat ustoz shogirdiga – "mayli ishingizni muhokamaga qo'yamiz" deb, ilmiy muhokama kuni, vaqti belgilandi.

"O'sha muhokama kuni mening yodimda" deb, qandaydir yengil hayajon bilan so'z boshlardi ustoz: "O'sha davrda ilmiy muhitda o'zining fikr-mulohazalari va takliflarini qat'iylik bilan ochiq bayon eta olishi bilan tanilgan, san'atshunoslik fanlari doktori, professor Tamara Semyonovna Vizgo birinchi bo'lib so'z olganda xayolimda "tamom bo'ldim ...", "mening tanqidim ustozga yoqmasi", – degan fikrlar yashin tezligida qayta-qayta takrorlandi. Qarangki, T.S.Vizgodek qattiqqo'l olima kutilmaganda shunday deydi: "Bu vazmin, nihoyatda kamsuqum aspirant mazmunan teran dissertatsiya yozibdi" ("Этот тихий, очень скромный аспирант написал глубокое по содержанию диссертацию"). Tamara Semyonovna mavzuga oid ilmiy nashrlar va monografiyalarga beriladigan taqriz qismida so'zini davom ettirib, haqiqiy yirik olimaligini namoyon etib: "...dissertatsiyada Oqilxon

meni mutlaqo to'g'ri tanqid qilgan. Men uning ilmiy e'tirozlarini qabul qilaman (... в диссертации Окилхон совершенно правильно критикует меня. Я принимаю его научные замечания”) so'zlari bilan yakunlagan. Muhokama davomida bir qator ustozlar so'zga chiqib, Oqilxon Ibrohimovning dissertatsiyasini bir ovozdan himoyaga tavsiya qilingan”. Shunday qilib, Oqilxon Akbarovich 1989-yilda dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Bu voqeani ko'p eshitgan bo'lsam-da, har galdagisi boshqacha ta'sir etar edi. Menimcha, ustozning o'zlari ham mazkur voqeani yosh olimlarga ilmiy poklik va madaniyatning yorqin namunasi ekanligini “yuqtirish”ga intilar edi.

Yillar o'tdi. Keyinchalik izlanishlarini izchil davom ettirib, Oqilxon Akbarovich 1998-yili “Maqomlar semantikasi” (“Семантика макомов”) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini ham yuksak saviyada yoqladi.

Professor Oqilxon Ibrohimovning faoliyati faqatgina shaxsiy tadqiqotlar bilan cheklanmay, ulkan tashkilotchilik va rahbarlik iqtidori bilan ajralib turardi. Olim O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti direktori (1998–2000) lavozimida samarali mehnat qilgan davrida institut hayotida misli ko'rilmagan ilmiy yuksalish yuz berdi. O'sha yillarda rahbar va olimning tashabbusi bilan deyarli har haftada bittadan respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etildi, “San'atshunoslik masalalari” ilmiy to'plami hamda boshqa bir qator davomiy ilmiy nashrlar tizimli ravishda chop etila boshlandi.

Oqilxon Akbarovichdan juda boy ilmiy bisot qolib, meros “100 dan ortiq ilmiy maqolalar, ta'lim tizimi uchun poydevor bo'lgan 21 ta darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalardan iborat bo'ldi. Shuningdek, olim oliy ta'lim tizimida 10 ta yirik magistrlik dissertatsiyasiga ham rahbarlik qilib, yosh kadrlarning ilk akademik qadamlarini ta'minladi. Ustozning bevosita rahbarligida bitta xalqaro va to'rtta respublika miqyosidagi yirik ilmiy loyihalar, taklif etilgan loyiha doirasida Davlat fan va texnologiyalar qo'mitasining bitta amaliy hamda bitta innovatsion grantlari muvaffaqiyatli bajarildi” [6, 4-b].

Musiqashunoslik ilmining vaqt va davr sinovlarida toblanib rivojlanishi xolis kuzatilganda, lotin donishmandlarining: “davrlar o‘zgaradi va biz ham ular bilan birga o‘zgaramiz...” (“Tempora mutantur, et nos mutamur in illis”) degan teran hikmati yodga tushadi. Bu haqiqat Is’hoq Rajabovning “Maqom asoslari” o‘quv qo‘llanmasi va Oqilxon Ibrohimov tomonidan yaratilgan “Maqom asoslari” darsligi misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Oqilxon Akbarovich o‘z ustozlari F.M.Karomatli bilan bir qatorda Rajabiyalar sulolasining yirik vakili Is’hoq Rizziyevich Rajabovni hamisha “mening ma’naviy ustozim” deb yuksak qadrlar edi. Bu rishtaning naqadar teran bo‘lganini birgina tarixiy fakt orqali ko‘rish mumkin. Is’hoq Rizziyevich Rajabovning vafotidan so‘ng 2006-yilda chop etilgan muhtasham “Maqomlar” monografiyasini nashrga tayyorlovchi, maxsus muharrir va unga so‘zboshi yozgan muallif aynan Oqilxon Ibrohimov bo‘lgan edi. O‘sha so‘zboshida Oqilxon Akbarovich chinakam san’atshunoslik falsafasini namoyish etib, kitobni mutolaa qilayotgan kitobxonlarga aniq misollar yordamida “yo‘l” ko‘rsatadi. “Islom dini ideologiyasi O‘rta Osiy va Xurosonda tarqalgandan keyin dunyoviy fanlar, adabiyot, san’at va ayniqsa musiqa madaniyati taraqqiyotiga katta to‘siq bo‘ldi”, deyiladi. Ammo kitobning keyingi sahifalarida buning aksini tasdiqlovchi muhim rivoyatlar, faktlar va shular qatorida hadislar ham keltiriladiki, o‘quvchi ular asosida o‘zi tegishli xulosa chiqarib olishi nazarda tutiladi” [4, 8-b]. Bu e’tirof olimning o‘z ustozlari o‘tkazgan zahmatli davrni qanchalik teran anglaganini ko‘rsatadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti arxivi va kutubxonasida saqlanayotgan noyob qo‘lyozmalar hamda I.Rajabovning poydevor asarlari Oqilxon Ibrohimovning ilmiy qarashlariga beqiyos ta’sir ko‘rsatdi. Biroq, davr o‘zgarishi bilan oliy ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi va zamonaviy talablar qo‘yildi. Ustoz Is’hoq Rizziyevich Rajabovning “Maqom asoslari” o‘quv qo‘llanmasining ikkinchi nashri 2019-yili san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor Ravshan aka Yunusov tomonida qo‘llanmaning to‘ldirilgan va qayta tahrirdan chiqarilgan ikkinchi nashri chop etildi. Mazkur “o‘quv qo‘llanma” mazmunan va mohiyatan hozirgi zamon talablariga to‘la mos tushadi. Chunki

uning yordamida maxsus musiqa ta'limining barcha yo'nalishlari bo'yicha tahsil olayotgan iqtidorli o'quvchi va talabalar, qolaversa, turdosh kasb va ixtisosliklarni egallayotgan bo'lg'usi san'at vakillari o'zbek maqomlari yuzasidan o'z bilimlarini kengaytirib, tushuncha va ko'nikmalarini chuqurlashtirib, pirovardida ijodiy salohiyatini ham boyitishga erishadilar" [5, 10-b]. Xususan, o'quv qo'llanmada Is'hoq Rizziyevich maqomlarning tarixiy ildizlari, parda tizimlari va o'rta asrlar risolalaridagi o'rnini nazariy isbotlab, sohaning mustahkam ilmiy poydevorini yaratdilar. Oqilxon Ibrohimov esa o'zlarining shu nomli darsliklarida ushbu an'anaviy nazariyalarni inkor etmagan holda, ularni yangi asrning metodologik va innovatsion qoliplariga soldi. Agar I.Rajabov darsligida ko'proq maqom tarixi va uning nota tizimlari tahlili akademik-ma'rifiy tavsifda berilgan bo'lsa, O.Ibrohimov darsligi sof zamonaviy ta'lim standartlari talablariga moslashtirildi. Oqilxon Akbarovich maqom o'qitishni 15ta maxsus mavzu (modul)ga ajratilgan holda taqdim etdi. Bundan tashqari, ustoz Oqilxon Ibrohimov nazariyani bevosita amaliy ijrochilik bilan chambarchas bog'lab, darslikning ichiga talaba kuylab va chalib o'rganishi uchun asosiy maqom sho'balarning nota misollarini matni bilan birga to'g'ridan-to'g'ri singdirdi va milliy maqomotni Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari hamda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari bilan yaxlit tizimda umumlashtirdi [1, 7-b].

Olim faoliyatining eng yuksak cho'qqilaridan biri sifatida u kishining xalqaro madaniy diplomatiyadagi misli ko'rilmagan xizmatini alohida e'tirof etish lozim. Oqilxon Akbarovich 2002-yili YUNESCO xalqaro tashkilotiga taqdim etilgan va insoniyatning nomoddiy madaniy merosi durdonasi sifatida g'olib deb topilgan "Shashmaqom" loyihasining bosh muallifi edi. Mazkur grant doirasida ajratilgan xalqaro moliyaviy yordam tufayli o'zbek maqomshunosligining bir qator noyob durdonalari, jumladan, Is'hoq Rajabovning "Maqomlar", Ravshan Yunusovning "Faxriddin Sodiqov", Oqilxon Ibrohimovning "Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari" monografiyalari va boshqa ko'plab fundamental tadqiqotlar dunyo yuzini ko'rdi va xalqaro ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi [6, 4-b].

Aytish joizki, davlat tomonidan milliy san'atga qaratilgan e'tibor ustoz tomonidan hamisha yuksak baholanar edi. Olim o'zining "Maqom tarixi va nazariyasi" darsligida soha rivojidadagi tarixiy burilishni shunday ifodalagan edi: "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori xalqimiz madaniy hayotini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi barobarida, jahon hamjamiyatining bu mumtoz san'atga bo'lgan ijtimoiy e'tiborini yanada orttirdi" [2, 3-b]. Mazkur iqtibos olimning davlat siyosati va milliy madaniyat rivojini naqadar chuqur strategik nigoh bilan kuzatganidan dalolat beradi.

Oqilxon Akbarovich hayotlik davrida tayyorlagan, ammo vafotidan so'ng sodiq shogirdlari G'anijon Xudoyev va Nasiba Turg'unovalarning say'-harakati va fidoiyligi tufayli 2023-yilda nashr yuzini ko'rgan "Maqom asoslari", "Maqomlar tarixi va nazariyasi" hamda "Amir Temur va temuriylar davri musiqa madaniyati" darsliklari milliy musiqashunoslik va ta'lim tizimida mutloq inqilobiy yangilik bo'ldi. Bu asarlar oliy ta'limda musiqa san'atini o'qitishning metodologik asoslarini tubdan o'zgartirib eng katta bo'shliqni to'ldirgan mutloq kashfiyotdir. Oqilxon Akbarovich birinchi bo'lib XIV–XV asrlarda Samarqand va Hirotda musiqa ilmining gullab-yashnashini, Xo'ja Abdulqodir Marog'iy kabi allomalarning nazariy merosini oliy ta'lim jarayoniga moslashtirilgan tizimli fan darajasiga ko'tardi. Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarida keltirilgan musiqiy qarashlar mazkur kitobda chuqur nazariy va pedagogik asosga ega bo'ldi. Muallif ushbu asar orqali "Temuriylar davri – o'zbek professional musiqasining oltin asri" degan bosh g'oyasini to'liq isbotlab berdi [3, 27-b].

Professor Oqilxon Ibrohimovning o'zbek musiqashunosligi rivojiga qo'shgan ulkan hissalaridan biri, shubhasiz, u kishining atrofida shakllangan zabardast ilmiy maktabdir. Olim 10 nafar yetuk shogirdlarning nomzodlik va doktorlik (PhD) ilmiy ishlariga bevosita rahbarlik qilib, ularni katta ilm maydoniga olib kirdi. Ustoz boshchiligida himoya qilingan dissertatsiyalarning mavzular ko'lamini kuzatilsa, olimning milliy musiqa san'atining barcha tarmoqlarini teran anglagan tafakkur

sohibi bo'lgan. Ustoz o'z shogirdlari orqali o'zbek xalq musiqasining vohalar kesimidagi noyob an'alarini tizimlashtirishga alohida e'tibor qaratdi. Bu borada Narzulla Toshtemirovning "Jizzax viloyati o'zbek xalq qo'shiqchiligi"ga doir ilk izlanishlari hamda Qurbonniyoz Panjiyevning "Surxondaryo viloyati o'zbek xalq qo'shiqchilik ijodiyoti"ga bag'ishlangan tadqiqotlari hududiy folklor manbalarini ilmiy muomalaga kiritishda katta qadam bo'ldi. Keyinchalik ushbu an'anaviylik Nasiba Turg'unova tomonidan "Namangan yallachilik san'ati an'analari" hamda G'anijon Xudoyev tomonidan "Buxoro mumtoz musiqa an'analari"ning mukammal o'rganilishi o'zbek musiqashunosligining hududiy bazasini boyitdi.

Ustoz Oqilxon aka o'z ilmiy faoliyatining bosh mehvari bo'lgan mumtoz meros va maqomot sirlarini ham vorislar qalbiga muhrlay oldi. Bu yo'nalishda Chinora Ergashevaning "O'zbek kasbiy musiqasida nazira an'analari"ga oid fundamental tadqiqoti hamda olimning so'nggi yirik ishlaridan biri sifatida Zohidjon Yakubov tomonidan "Buxoro Shashmaqomining Savt va Mo'g'ulcha sho'balari"ning nozik parda xususiyatlari ochib berilishi ustoz boshlagan sharaflil maqomshunoslik yo'lining barhayotligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, olim zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti va estrada yo'nalishlarini ham sinchkovlik bilan kuzatib bordi. Uning rahbarligida Davlat Mullajonovning "1990-yillar o'zbek musiqiy estradasida ohang muammosi"ga bag'ishlangan ishi va Nodira Amanovanning "O'zbek estrada musiqasining milliy o'ziga xosligi janrlar rivoji kesimida"gi tahlillari sohada yangi sahifa ochdi. Shuningdek, Janna Martirosovaning "Kompozitorlik ijodiyotida yil fasllari mavzusining talqini" hamda Zulfiya Muradovanning "O'zbekiston kompozitorlari ijodida bolalar qo'shiqlarining o'rni" borasidagi izlanishlari musiqashunoslikning zamonaviy va akademik yo'nalishlarini ham yuqori bosqichga ko'tardi.

Oqilxon Akbarovich bilan zamondosh bo'lgan, u kishi bilan yelkama-yelka ilm sohasida mehnat qilgan hamkasblari uchun u faqatgina yirik olim emas, balki nihoyatda o'qimishli, ta'sirchan va samimiy inson edi. Safdoshlari, shogirdlari uni mehribon ustoz, aka, fikrdosh do'st va suyanish mumkin bo'lgan tog' deb bilardilar.

Uning suhbatlarida bo'lgan har bir inson olimning ichki madaniyati, san'atga bo'lgan cheksiz muhabbati va qalb go'zalligiga lol qolardi. Ustoz mana shunday keng qamrovli ilmiy uzviylikni yaratgani va yoshlarni tarbiyalagani uchun ham 2008-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni hamda 2021-yilda "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

Bugun san'atshunoslik fanlari doktori, professor Oqilxon Akbarovich Ibrohimovning ilmiy merosi, shu jumladan maqolada e'tirof etilgan darsliklari shunchaki kitoblardan iborat emas, u milliy san'atimizning tirik jonidir. Ushbu fundamental tadqiqotlari, o'quv qo'llanma va darsliklarining respublikamiz ilm-faniga, shuningdek oliy ta'lim tizimida munosib qabul qilinishi – ustoz olimning fidokorona mehnatiga berilgan eng yuksak baho bo'ldi. Bu e'tirof zamirida u zotning ilmiy jasorati, maqom san'atiga bo'lgan cheksiz muhabbati va haqiqiy olimlik qismati namoyondir. Oqilxon Akbarovichning nomi va ulkan merosi shogirdlari ardog'ida, xalqimizning ma'naviy xazinasida abadiy yashaydi.

Alloh ustozimizni rahmatiga olsin, oxiratlarini obod qilsin!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Ibrohimov O. Maqom asoslari. Darslik. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – 184 b.*
2. *Ibrohimov O. Maqomlar tarixi va nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – 71 b.*
3. *Ibrohimov O. Amir Temur va temuriylar davri musiqa madaniyati. Darslik. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – 120 b.*
4. *Rajabov I. Maqomlar / Nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir O.Ibrohimov. – Toshkent: San'at, 2006. – 403 b.*
5. *Rajabov I. Maqom asoslari. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 154 b.*
6. *Xudoyev G'. Fidoyilik mukofoti // Ijodiy parvoz. – Toshkent: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy. Axborot gazetasi. – 2016. – №11(43).*